

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЯТ ВА
СПОРТ ИШЛАРИ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ КОНСЕРВАТОРИЯСИ

Мушаккил маржасуновлик кафедраси
"Нотасазутирғили" фансидан

Курс Иши

Мавзу: Абдиназар Бокимов
Тошкент маржасуновлик фансидан

Бажарди:

Хуррамов У
II курс БМР Факультети

Илмий раҳбар:

Қурбаноф К. Ш.

Тошкент 2011

Reja

- 1) Kirish
- 2) Dostonlar va baxshilar haqida
- 3) Abdunazar baxshi Poyonov
- 4) Xulosa

Kirish

Atoqli adibimiz Oybek takidlaganidek badiiy madaniyatning birinchi vakillari xalq shoirlari baxshilar. Ularning soʻz improvizatsiyasi musiqa bilan bogʻliq. Baxshilar oʻz ashula va dostonlarida mehnatga asoslangan hayotning zavqini, xalqdan chiqqan afsonaviy bahodirlarni, qahramonlarni madh etadilar. Baxshilar dunyodan oʻtaveradilar, lekin ularning hayotidek sogʻlom va soda soʻzlari, bahor dalasidek yorqin va gʻozal qofiyalari tirik qolaveradi. Ana shunday qilib oʻnlab katta epik dostonlar, yuzlab qoʻshiq va termalar bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Dostonlar va baxshilar haqida

Elat va qavmlarning yashash tarivi tafakkuri va etiqodlarni tadqiq etishda milliy doston, rivoyat va afsonalar tarixiy vositalar sifatida qimmatli manbaaga aylanadi.

Dostonchilik san'atida og'zaki epik asarlardan tashqari yozma ravishda sharqning mashhur yozuvchilarning ham asarlari ijro etilgan: Alisher Navoiyning "Hayrat-ul Abror", "Farxod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi asarlari yozma adabiyotdagi kitobiy dostonlar hisoblanadi. O'zbekistondagi mavjud dostonlarni mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin"

- 1) Qahramonlik, bohodirlik dostonlar
- 2) Tarixiy dostonlar
- 3) Romantik dostonlar
- 4) Diniy dostonlar

Hajman yirik bo'lgan dostonlar baxshilardan badiha g'oylik va musiqiy nazmiy qobiliyatni, o'qish-so'zlash va mahoratni talab etadi. Dostonlarning asosiy musiqa janri – termadir.

Terma so'z va kuydan tashkil topib, musiqa cholg'usi do'mbira yoki qo'biz va cholg'u ansambli jo'rligida aytiladi. Har bir dostonda 5tadan 36gacha kuy-ohanglar qo'llanadi. Doston kuylari "nag'ma", "nola" yoki "nolish" va baxshi kuy deb ataladi.

Doston termalari o'z nomiga ega bo'lib: Surxandaryoda doston nag'malaria Kelinoy nag'masi, Qo'ng'iro't nag'masi, Go'ro'g'li nag'masi Sarboz nag'masi, ot haydash nag'masi, va h.k. Xorazmda Eshvoy, Muhammas, Qora dali, Norin, Afg'on yo'li, nola va h.k. deb nomlanadi.

Har bir dostonning muqaddimasi cholg'u kuyi ohanglari yordamida ochib beriladi. "Sayqal" va boshqa cholg'u kuylari odatda har aytim, terma namunalaridan keyin yoki oldin ijro etiladi. Baxshi dastlab "qaysi doston dan aytayin" (nima aytay, doston terish) termasi bilan tinglovchilarga murojaat etadi. So'ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko'ra biror doston ijro etiladi. Bunda baxshi o'ziga va eshituvchilarga jiddiy mazmundagi musiqiy-poe'tik asarlarni kuylash va tinglash uchun kayfiyat hosil qiladi.

O'zbek dostonchilik san'atida ikkita asosiy ijro uslubi mavjud:

- 1) **Rechitativ** – tomoq yani (bo'g'iq ovoz) aytimi. Mazkur aytim jarangsiz xira bo'lib u do'mbra yoki qo'buz jo'rligida bir muncha jonli tus oladi. Bu uslub asosan Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan viloyatining Pop.tumanlarida ishlatiladi.
- 2) **Qo'shiqsimon** – kuychan cholg'u asari jo'rligida ijro etiladi. Ulardan kuy tuzilishi harakteri va ritm usul holatlari ancha rivojlangan. Ushbu musiqiy dostonlarda terma qo'shiq ijro tarsi turlicha bo'lib u baxshining badiiy didi va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Abdunazar Poyonov kelib chiqishi Qo'ng'iro't urug'i yani Surxandaryo viloyati Boysun tumani Homkon qishlog'ida tug'ilgan. Hozirda qiziriq tumani ohunboboyev jamoa xo'jaligida yashab ijod etib kelmoqda. Asli kasbi muxandis mehanik bo'lib baxshichilikka 80yillardan qiziqib shug'ullana boshlagan. Baxshichilikda birinchi ustozi Mardonaqulov Xushvaqt baxshi. Abdunazar poyonov Sherobod baxshichilik maktabidan saboq olgan. Bu Sherobod baxshichilik maktabi 1800-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Sherobod baxshichilik maktabiga kelib chiqishi sherobodlik bo'lgan Sherna baxshi asos solgani uchun ham gohida Sherna baxshichilik maktabi deb atashadi:

Sherna baxshi

Olim yuzbaxshi

Normurod Shernazar

Xoliyor Abdunazar Karim o'g'li

Umid baxshi

Xushvaqt baxshi

Mardonaqulov

Shoberdi Boltayev

Abdunazar baxshi

Poyonov

Baxshilarning ko'pchiligi Qo'ng'irot urug'idan yetishib chiqqan. Va dostonlarimizning asosiy qismi ham Qo'ng'irot ahlining ijod mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham goh Samarqandda bo'lsin goh Surxandaryoda Qashqadaryoda bo'lsin baxshi qay urug'dan, qay elatdan bo'lishidan qat'iy nazar u baribir baxshichilik qilib doston kuylaganda asosan qo'ng'irot shevasida usulida kuylaydi va do'mbra chertadi. Bunday dostonlarga "Alpomish", "Oysulu", "Go'ro'gli", "Kun tug'mush", "Manguberdi", "Xurshidoy", "Oyparcha", "Kelinoy"larni misol keltirishimiz mumkin. Albatta bular kitoblarda, qo'lyozma manbalarda adabiy tilda yoziladi.

Abdunazar baxshining repertuaridan terma, doston, rivoyat janrlari o'rin egallagan. Rivoyatlar ham cholg'u j'orligida ijro etiladi. Bu rivoyatlarning ham mazmun mohiyati pand-u nasihat yo'lida bo'lib, insonlarni iymonga chaqiruvchi, islom yo'lida tarbiyalovchi ahamiyatlarga egadir.

Professor Rustam Abdullaev Boysunda bo'lgan ekspeditdiyasiida Abdunazar baxshi bilan uchrashib, suhbatlashib shunday xulosaga keladiki: Abdunazar baxshining aytim yo'li qo'shiqsimon yo'lga kiradi.

Asosiy repertuaridan 30ta doston o'rin olgan shulardan 20tasini mukammal ijro etib, qolgan 10ta dostonning sujetlarini biladi. Terma janrida esa 60ga yaqin termalar mavjud. Bu termalarni xalq qo'shiqlari ham deb ataladi, chunki xalq ijod mahsuli ham terma janriga kiradi. Va Mahtum Quli, Ahmad Yassaviylarning g'azallaridan ham o'z repertuariga kiritgan.

Abdunazar baxshining ijodiy safarlari juda ko'p bo'lib asosan Surxandaryo, Qashqadaryoda bo'ladigan to'ylarda, O'zbekiston bo'ylab turli viloyatlarda bo'ladigan turli xil bayramlarda, xalq sayllarida, anjumanlarda bo'lgan. Qolaversa chet davlatlarga ham ijodiy safarlarda bo'lgan: Parij, Belgiya, Shvetsariya, Turkiyalarda bo'lgan. Qo'shni davlatlarga ham bo'lib kelgan: Qirg'iziston, Qozog'istonning Chimkent shahrida bo'lgan

Xulosa

O'zbek xalq og'zaki ijodi jumladan epik asarlarning yozib olishlar ancha kech asosan ulug' aktabr sotsialistik revolutsiyasidan keyin kirishildi. Shunga qaramay ulkan ma'naviy boylik topildi. O'zbek dostonlarning qadimiy va jonli an'anasi asrimizning o'lmas elliginchi yillarigacha gullab davom etdi. Doston bugungi kunda hani Respublikamizning ko'p joylarida rivojlanib kelmoqda. Xususan Surxandaryo viloyatidan Abdunazar Poyonovga o'xshagan baxshilarning borligi yosh qiziquvchan baxshilarning ko'payishiga imkon beradi. Buning uchun bunday baxshichilik maktablarni ko'paytirib ularga alohida etibor berishimiz kerak. Bu albatta o'z o'rnida milliychilikning asosiy dalolatlaridandir.

Dostonlarning asosiy qismlari ko'proq rivoyaga aylanib bormoqda. Shunga qaramay, bunday variantlarni mumkin qadar ko'p yozib olishimiz kerak bo'ladi. Chunki ularni yetakchi baxshilarvariantlari bilan qiyosiy o'rganish epik an'analarning muayyan davrlardagi darajasini har tomonlama tadqiq etish uchun muhim ahamiyatga ega.